

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ISLAMOV KAMOL TASHKULOVICH

**MARKAZIY OSIYO VA YEVROPA RENESSANSINING O‘ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI (TARIXIY-FALSAFIY TAHLIL)**

09.00.03 – Falsafa tarixi

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on philosophical sciences**

Islamov Kamol Tashkulovich

Markaziy Osiyo va Yevropa Renessansining o‘ziga xos xususiyatlari
(tarixiy-falsafiy tahlil) 5

Исламов Камол Ташкулович

Особенности Центрально-Азиатского и Европейского Ренессанса
(историко-философский анализ)..... 23

Islamov Kamol Tashkulovich

Peculiarities of Central Asian and European Renaissance
(historical and philosophical analysis) 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works.....50

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ISLAMOV KAMOL TASHKULOVICH

**MARKAZIY OSIYO VA YEVROPA RENESSANSINING O‘ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI (TARIXIY-FALSAFIY TAHLIL)**

09.00.03 – Falsafa tarixi

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/Fal803 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Masharipova Gularam Kamilovna
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Shodmonov Qurbon Badriddinovich
falsafa fanlari doktori, professor

To‘rayev Baxtiyor Omanovich
falsafa fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli ilmiy kengashning 2023 yil “6” DeKabr soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (386 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil “23” Noyabr kuni tarqatildi.

(2023 yil “23” Noyabr dagi 24 raqamli reyestr bayonnomasi.)



Navro‘zova G. N.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

Sharipov A. Z.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

Sharipova O.T.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda bugungi globallashuv asrida inson ongi va qalbiga millat ma'naviyatiga yot bo'lgan turmush tarzining o'zgacha uslublarini singdirish borasidagi tazyiqlar, an'anaviy qadriyatlar deformatsiyasi umumsayyoraviy tamaddunning iqtisodiy-ijtimoiy va ma'naviy-axloqiy muammolar natijasida majruh bo'layotganligini namoyon etmoqda. Bu esa zamonaviy bilimlar vorisiyligini ta'minlash, madaniy jarayonlar transformatsiyasini barqarorlashtirishda insoniyat tamadduni ildizlari, ma'naviy taraqqiyotidagi uyg'onish davri madaniyatini chuqur o'rganishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, Markaziy Osiyo va Yevropa allomalarining ilmiy-falsafiy va ma'naviy merosini qiyosiy tadqiq etish asosida ularda dunyoviylik va ratsionalizm ustuvorligi, tabiiy-ilmiy bilimlar rivoji, ilm-fanni ulug'lash kabi umuminsoniy qadriyatlarni, boshqaruvning demokratik ildizlari, ularning ijtimoiy-falsafiy tafakkur rivojiga substansional ta'sirini zamonaviy yondashuvlar asosida ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani va yetakchi ilmiy tadqiqot markazlarida Uyg'onish davri ijtimoiy-ma'naviy merosidagi taraqqiyotga xizmat qiluvchi g'oyalarni, falsafiy, huquqiy, siyosiy va axloqiy qarashlarni, madaniy yuksalish omillari, uning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga oid ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Renessans davri mutafakkirlarining ta'limotlari, g'oya va qarashlari, ularning immanent xususiyatlarini, xususan, Markaziy Osiyo va Yevropa mintaqalarida bashariyatni gumanistik taraqqiyotga, dunyoni anglash, hayotning mazmunini tushunishga, o'zlikni anglashga, olamning umumiy manzarasini bilishga imkon yaratgan falsafiy qarashlar ilmiy tahliliga ehtiyoj oshmoqda. Shu ma'noda Sharq va G'arbda asoslab berilgan g'oyalar va Buyuk Ipak yo'li orqali mamlakatlar taraqqiyotiga muhim hissa qo'shgan, inson faqat moddiy boylikka emas, ko'proq ma'naviy boylik, e'tiqod va imon tomon intilishiga oid konsepsiyalarni komparativistik tadqiq etish zarurati tobora ortib bormoqda.

O'zbekistonda demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g'oyalari atrofida fuqarolarni jipslashtirish, yoshlarni ilm-fan va innovatsiyalarga keng jalb etish, ularni "Yangi O'zbekiston - Uchinchi Renessans sari!" shiori atrofida birlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimli tashkil etilmoqda. "Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma'naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o'lmas meros hamisha yonimizda bo'lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag'ishlashi lozim. Avvalambor, milliy ta'lim tizimini ana shunday ruh bilan sug'orishimiz kerak. Buning uchun olim va mutaxassislarimiz, hurmatli ulamolarimiz bu ma'naviy xazinani bugungi avlodlarga sodda va tushunarli, jozibali shakllarda yetkazib berishlari zarur"¹. Shu boisdan, Markaziy Osiyo va Yevropa "Uyg'onish" davri allomalarining gumanistik g'oyalari, olamshumul kashfiyotlari, ma'rifatparvarlik, insonparvarlik tamoyillarining konstruktiv ahamiyatini tarixiy-falsafiy tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Тошкент: "O'zbekiston", 2021. - Б.225

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 16-iyuldagi PQ-5186-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2022-yil 10-fevraldagi PQ-126-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-son “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” qarori hamda sohaga oid boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Markaziy Osiyo va Yevropa Renessansi, uning vujudga kelish sabablari, tarixiy shart-sharoit, iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy omillari ko‘plab soha olimlari, xorijiy tadqiqotchilar tomonidan tahlil etilgan. Jumladan, sharqshunos olimlardan I.Krachkovskiy, V.Bartold, B.Rozenfeld, YE.Bertels, A.Mets, G.Rudolf, G.Sarton va A.Sayili kabi olimlar tomonidan olib borilgan monografik tadqiqotlar Markaziy Osiyo mutafakkirlari ta’limotlari evolyutsiyasi hamda tabiiy, ilmiy-falsafiy mohiyatiga qaratilgan bo‘lib, ma’lum darajada mavzu yuzasidan ijtimoiy-falsafiy fikrlar genezisi kabi muammolarni yoritib berishda muhim ahamiyatga egadir².

² Крачковский И. Арабская географическая литература // И.Крачковский. Избр. соч.-я. Т. IV. - Москва-Ленинград, 1957.; Бартольд В. Культура мусульманства // Бартольд В. Сочинения. Т. IV. - Москва: 1966. - С. 143-204; Розенфельд Б., Матвиевская Г. Математики и астрономы мусульманского средневековья и их труды (VIII-XVII вв.). – Москва, 1982; Бертельс Е. История персидско-таджикской литературы // Е.Бертельс. Избр. труды. – Москва, 1960.; Мец Адам. Мусульманский Ренессанс // Перевод с немецкого. Предисловие, библиография и указатели Д.Е.Бертельса. Изд. 2-е. – Москва, 1973; Rudloff G, Hochheim A. Die Astronomie des Mahmud ibn Muhammed ibn `Omar al-Cagmini // Zeitschrift der Deutschen Morgenlandischen Gesellschaft, Bd.47, 1893. - P.213-275.; Sarton G. Introduction to the History of Science, vol. I-III. - Baltimore. 1927-1948. - vol.I. - P.707; Sarton G. Adrian von Romen`s commentary on Al-Khowarizmi (1598). Isis. vol. 21. 1934. - P. 18-23.; Sayili A. Abdulhamid ibn Turk`un «Katisik Denklemelerde Mantiki Zaruretler» adli yazisi ve zamanin cebri (Logical necessities in mixed equations by `Abd al-Hamid ibn Turk and the algebra of his time), Text in turkish, english and arabic, Turk Tarih Kurumu Yayinlardan. - Ankara. 1962. VII. Seri. 41. - P. 95; Sayili A. The observatory in Islam. –Ankara, 1960. - 343 p.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari olimlari A.A.Semenov, X.F.Abdulla-Zade, M.M.Rojanskaya, B.V.Lunin kabi olimlar tomonidan mavzu doirasidagi masalaning davr xarakteri, ilmiy rivojlanish, yangi bilimlarning yaratilishiga bog'liq jihatlari tadqiq etilgan³.

Yurtimiz olimlaridan I.Mo'minov, O.Fayzullayev, M.Xayrullayev, F.Sulaymonova, A.Ahmedov, A.Sharipov, B.Karimov, B.Abdusalimov, R.Bahodirov, G.Masharipova, M.Xandamova singari olim va olimalar Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ilmiy merosi, ularning jahon ilm-faniga qo'shgan hissasi, Bag'doddagi "Bayt ul-hikma" va unda faoliyat olib borgan ajdodlarimiz merosiga qaratilgan izlanishlar olib borganlar⁴. Ayniqsa, M.Xayrullayev tadqiqotlarida dunyoviy ma'rifatga intilish, tabiiy-falsafiy, tarixiy, diniy hamda ijtimoiy ilmlarni rivojlantirish, aql kuchiga ishonish, tabiatga qiziqish, ratsionalizm va uning mohiyatini anglashga, A.Abdusalimov esa o'rta asr manbalarida saqlangan "Bayt al-hikma" haqida ma'lumotlar, K.Shadmanov ning XIX-XVI va XVII asrlarda ijod qilgan mutafakkirlarning ilmiy izlanishlari ijtimoiy-falsafiy, filologik, tarixiylik va adabiyot janri asosida asoslab berishga, G.Masharipova Birinchi Renessans namoyondalari, Xorazm Ma'mun akademiyasi allomalari, 30 dan ortiq allomalarning tabiiy-ilmiy va falsafiy merosi, ushbu merosning ijtimoiy-falsafiy tafakkur taraqqiyotidagi o'rni tahlil qilingan.

Sharq va G'arb ilmiy merosida axloqiy va epistemologik muammolarning metodologiyasi bilan shug'ullangan o'zbek faylasuf olimlari B.To'rayev, K.Shadmanov, M.Abdullayeva, Sh.Madayevalarning tadqiqot ishlari mavzu doirasidagi metodologik masalalarni tahlil etishda muhim ahamiyatga ega⁵.

³ Семенов А.А. Бируни - выдающийся ученый средневековья // Бируни – великий ученый средневековья. – Ташкент: Фан, 1950. - С. 38-39.; Абдулла-заде Х.Ф. История астрономии в средневековом Хорасане и Мавераннахре (IX – XV вв.): Автореф. дис. докт. ист. наук. - Душанбе, 1990. - 43 б.; Рожанская М.М. Механика на средневековом Востоке. – Москва, 1976. - 328 с.; Лунин Б.В. Библиографический указатель советской литературы об Абу Райхане Беруни и изданий текстов его произведений (1918-1972) // Сборник статей к 1000-летию со дня рождения Беруни. - Ташкент: Фан, 1973. - С.186-202; Лунин Б.В. Жизнь и труды Ибн Сины в отечественной науке // Абу Али ибн Сина. К 1000-летию со дня рождения. - Ташкент: Фан, 1980. - С. 212-243.;

⁴ Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. – Тошкент, 1968.; Файзуллаев О.Ф., Хайруллаев М.М. Культура периода раннего Ренессанса в Средней Азии. – Ташкент: 1994. – 188 с.; Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан лавҳалар. / М.Хайруллаев тахрири остида. -Тошкент: Ўзбекистон, 1995. – Б. 11-12; Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб (Қадимий давр ва ўрта асрлар маданият алоқалари). – Тошкент: Ўзбекистон, 1997.; Ahmedov A. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. 1-7-jildlar. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.; Шарипов А.Д. Великий мыслитель Беруни. - Ташкент: Фан, 1972. - 174 с.; Каримов Б.Р. Хоразмий, Фарғоний, Форобий, Беруний, Ибн Сино ва Улуғбекнинг hozirgi замон цивилизацияси илмий ва интеллектуал ривожига қўшган хиссаси // Мирзо Улуғбек мероси ва hozirgi замон. -Тошкент: Ўзбекистон миллий университети, 2014. -С.42-52.; Абдуҳалимов Б. «Байт ал-ҳикма» ва Ўрта Осиё олимларининг Бағдоддаги илмий фаолияти (IX-XI асрларда аниқ ва табиий фанлар). - Тошкент: Тошкент ислом университети, 2004. - 236 б.; Бахадиров Р.М. Из истории классификации наук на среневековом мусульманском Востоке. - Ташкент: Фан, 2000. - 126 с.; Машарипова Г.К. Хоразм Маъмун академияси алломалари табиий-илмий меросининг ижтимоий-фалсафий тафаккур тараққиётига таъсири. Фалс.док. дисс. – Тошкент, 2020. – 302 б.; Хандамова М. Абу Райҳон Берунийнинг ижтимоий-фалсафий қарашлари. Фалс.фан.бўйича ёзилган дисс. автореферати. – Самарқанд, 2021, 51-б.;

⁵ Тўраев Б.О. Абу Райҳон Беруний / «Мутафаккирлар» илмий-оммабоп рисолалар туркуми. – Тошкент: Тафаккур нашриёти, 2009. – 96 б.; Шадманов К. Особенности становления и развития английской философии Возрождения (Категориально-понятийный аспект). Автореф. дисс. на соис.докт. филос. наук – Тошкент, 2006. - 48 с.; Абдуллаева М.Н. Проблема адекватности познания / Под. Ред. П.К.Хайруллаева, О.Ф.Файзуллаев. – Ташкент. Фан, 2000; Мадаева Ш.О. Ўзбек менталитетида демократик тафаккурнинг шаклланиш хусусиятлари. Фалсафа фанлари докторлиги диссертацияси. – Тошкент, 2009. – 260 б.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar klassifikatsiyasi shuni ko'rsatadiki, Sharq va G'arb Renessansining o'ziga xos xususiyatlari, allomalar tabiiy-ilmiy va ma'naviy merosini o'rganish bo'yicha olib borilgan izlanishlar tadqiqot mavzusi doirasida yetarlicha yaxlit kompleks ilmiy tadqiqot amalga oshirilmaganligini ko'rsatadi. Shu jihatdan, ushbu tadqiqot ishida Markaziy Osiyo va Yevropa Renessansining o'ziga xos xususiyatlari, o'xshash va farqli tomonlari, o'zaro bog'liqlik, o'zaro ta'siri masalalarini tadqiq etishga alohida e'tibor qaratilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Termiz davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasiga binoan 2020-2023 yillarda amalga oshirilishi lozim bo'lgan "Yo'l xarita"sining 2.4-bandi "Falsafa tarixining zamonaviy nazariy-metodologik muammolari" (2020-2023 yy) yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Markaziy Osiyo va Yevropa Renessansining dialektik aloqadorligi va farqli jihatlarini aniqlashtirish hamda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdagi ahamiyatini asoslab berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Markaziy Osiyo Renessansining tarixiy-falsafiy masalalarini birlamchi manbalar asosida nazariy-metodologik tadqiq etish;

Uyg'onish davri Sharq va G'arbda ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy, diniy va dunyoviy bilimlar, ushbu davrda ilm-fanning sohalari va asosiy yo'nalishlarini umumlashtirish;

Yevropa va Markaziy Osiyo Renessans davri allomalari qarashlarida ilmiy, ijtimoiy, tabiiy va falsafiy qarashlarning germenevtik asosini tahlil etish;

Renessans davri allomalari merosida dunyoviy va diniy bilimlar nisbatini hamda Markaziy Osiyo Uyg'unish davrining Yevropa tafakkur taraqqiyoti va ilm-fanga ta'sirini aniqlashtirish;

O'rta asrlardagi Markaziy Osiyo uyg'onish davri mutafakkirlarining ilmiy merosi hamda Ma'rifiy uyg'onish davri g'oyalarini Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdagi o'rnini asoslab berish;

Yevropa va Markaziy Osiyo Renessans davri allomalari qarashlari asosida "Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat konsepsiyasi"ning ma'naviy poydevori sifatida xizmat qiladigan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida Markaziy Osiyo va Yevropa Renessansining o'ziga xos xususiyatlari, allomalar tabiiy-ilmiy va ma'naviy merosi hamda bu davr xususiyatlarini ochib berishga qaratilgan ilmiy-ma'naviy meros tanlangan.

Tadqiqotning predmeti Markaziy Osiyo va Yevropa Renessansining o'ziga xos xususiyatlari, ularning o'zaro aloqadorligi va ta'sirlashuv jarayonini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, induksiya va deduksiya, dialektik, retrospektiv, qiyosiy tahlil, tizimli yondoshuv, germenevtik va sinergetik, funksional tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Markaziy Osiyo va Yevropa allomalarining ilmiy-falsafiy va ma'naviy merosini qiyosiy tadqiq etish asosida ularning dunyoviylik va ratsionalizm

ustuvorligi, tabiiy-ilmiy bilimlar rivoji, ilm-fanni ulug‘lash kabi umuminsoniy prinsiplar tayangani hamda Sharq allomalari ta’sirida G‘arbda dunyoviy bilimlar, fan qonuniyatiga xos xususiyatlar va boshqaruvning demokratik ildizlari shakllanganligi, undan foydalanishning ijtimoiy-falsafiy tafakkur rivojiga substansional ta’siri asoslab berilgan;

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning “Kitob al-amal bi-l-asturlobot” (Asturloblar bilan amal tutish haqida kitob) risolasi XII asr o‘rtalariga kelib, “Muqaddas Rim imperiyasi”da, Avstriya va Germaniyada, umuman Sharq va G‘arb kundalik hayoti talabi va ehtiyojlarini e’tiborga olgan holda olimlar va hunarmandlar uchun arifmetika va yangi hisoblash tizimini ishlab chiqilishiga, o‘nlik pozision hisoblash sistemasining va raqamlarning tarqalishida muhim ahamiyat kasb etganligi dalillangan;

G‘arbda XIV-XV asrlarda olamning ilmiy manzarasi va kosmologik ta’limotlar rivojiga Abu Rayhon Beruniyning geliosentrik konsepsiyasi tabiat falsafasining rivojiga, uning tabiiy va sun’iy tanlanish, rivojlanish anomaliyasi kabi murakkab ontologik muammolarini hal etishda va aqlning yuqori ahamiyati, bilishga intilish va manfaatdorlik kabi gnoseologik asoslarini boyitishga hissa qo‘shganligi aniqlashtirilgan;

Sharq va G‘arbda yaratilgan astronomik g‘oyalar jo‘g‘rofiy iqtisodiyotda amaliy qo‘llanilgani va Buyuk Ipak yo‘li orqali mamlakatlar taraqqiyotiga muhim hissa qo‘shganligi, inson faqat moddiy boylikka emas, ko‘proq ma’naviy boylik, e’tiqod va imon tomon intilishiga oid konsepsiyalar komparativistik jihatdan ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Sharq allomalarining axloqiy poklik savdo-sotiq bilan shug‘ullanuvchi kishi uchun buyuk bezak bo‘lmog‘i lozimligi, tijorat, savdo-sotiq halollikka, ruhiy-ma’naviy yetuklikka asoslanishi, ruhiy-ma’naviy poklik, e’tiqod va imon tomon intilishiga oid ilmiy va so‘fiylar hayotiga mos konsepsiyalarning o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan;

yoshlarni ilmiy, falsafiy va tabiiy fanlarga oid qiziqishlarni rivojlantirish hamda ularda vatanparvarlik, milliy g‘urur, millatparvarlik, iftixor tuyg‘ularini mustahkamlash va intellektual salohiyatini kuchaytirish maqsadida Markaziy Osiyo va Yevropa Renessansi allomalari tabiiy-ilmiy va ma’naviy merosini targ‘ib qilish yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan;

Markaziy Osiyo va Yevropa mutafakkirlarining ilmiy-falsafiy va ma’naviy merosidan samarali foydalanish orqali inson kapitalini rivojlantirish, “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat konsepsiyasi”ni amalga oshirish, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga doir targ‘ibot ishlarini samarali tashkil qilish yo‘llari va usullari takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarning ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan nazariy qarashlar, yondashuv uslublari, tadqiqot usullari va ilmiy ma’lumotlarning rasmiy manbalar va ishonchli dalillardan olinganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o‘tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari yuzasidan berilgan xulosalar, takliflar ishlab chiqilganligi va

tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan nazariy-uslubiy xulosalar falsafa tarixi tahlili, jumladan, Sharq va G'arb mutafakkirlari allomalari ta'limotining nazariy masalalarini o'rganishga oid ilmiy tadqiqot ishlarida, O'zbekiston xalqining boy tarixi va madaniyatini aks ettiruvchi noyob va nodir madaniy merosini asrab-avaylashda, Yevropa Renessansining shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatgan Musulmon Renessansi davrida ilm-fan, madaniyat va san'at, me'morlik rivoji to'g'risidagi ma'lumotlarni boyitishda, ilmiy-ma'rifiy uyg'onish davriga asos solgan ulug' ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan va bugungi kunda ham ma'rifatli dunyoni hayratga solib kelayotgan ilmiy merosini o'rganish, ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish, ular yaratgan ilmiy yo'nalishlar va maktablar an'analarini davom ettirishda, shuningdek ta'lim muassasalarida o'qitiladigan ijtimoiy fanlarning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qilishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishdagi nazariy umumlashma va tahlillardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazlarining yosh avlodni tarbiyalashga oid profilaktik tadbirlar va ma'rifiy targ'ibot faoliyatida, oliy va o'rta maxsus diniy ta'lim muassasalarini yuqori malakali ilmiy kadrlar bilan ta'minlash, tayyorlanayotgan mutaxassislarning ilmiy va kasbiy salohiyatini oshirish, qur'onshunoslik, tafsir va fiqh, hadisshunoslik, kalom ilmi yo'nalishlari bo'yicha yetuk ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlashda, ommaviy axborot vositalarida mavzuga oid bo'lgan ko'rsatuvlar tayyorlashda, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini yanada oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"da belgilangan vazifalarni amalga oshirishda, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy hamda tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish, media materiallar hamda "Falsafa", "Pedagogika", "Tarbiya", "Ma'naviyatshunoslik" fanlari mavzuga oid o'quv-metodik qo'llanmalarni tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Markaziy Osiyo va Yevropa Renessansining o'ziga xos xususiyatlarni o'rganish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

Markaziy Osiyo va Yevropa allomalarining ilmiy-falsafiy va ma'naviy merosini qiyosiy tadqiq etish asosida ularning dunyoviylik va ratsionalizm ustuvorligi, tabiiy-ilmiy bilimlar rivoji, ilm-fanni ulug'lash kabi umuminsoniy prinsiplar tayangani hamda Sharq allomalari ta'sirida G'arbda dunyoviy bilimlar, fan qonuniyatiga xos xususiyatlar va boshqaruvning demokratik ildizlari shakllanganligi, undan foydalanishning ijtimoiy-falsafiy tafakkur rivojiga substansional ta'siriga oid ilmiy-nazariy xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Xorazm Ma'mun Akademiyasida bajarilgan A-FA-2019-9-raqamli "Qadimiy yozma noyob qo'lyozma va manbalarni tadqiq qilish, ularning raqamlashtirilgan bibliotekasini yaratish" (2019-2022 yy) amaliy loyihasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Xorazm Ma'mun Akademiyasining 2023-yil 10-

apreldagi 78/1-23-son ma'lumotnomasi). Natijada, Markaziy Osiyo va Yevropa allomalari merosiga bag'ishlangan ma'lumotlarni boyitishga, mazkur materiallar mavzuga oid targ'ibot ishlarida material sifatida, shuningdek amaliy grant loyihasining samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning "Kitob al-amal bi-l-asturlobot" (Asturloblar bilan amal tutish haqida kitob) risolasi XII acp o'rtalariga kelib, "Muqaddas Rim imperiyasi"da, Avstriya va Germaniyada, umuman Sharq va G'arb kundalik hayoti talabi va ehtiyojlarini e'tiborga olgan holda olimlar va hunarmandlar uchun arifmetika va yangi hisoblash tizimini ishlab chiqilishiga, o'nlik pozision hisoblash sistemasining va raqamlarning tarqalishida muhim ahamiyat kasb etganligiga oid taklif va tavsiyalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2022-2023 yillarda o'tkazilgan targ'ibot faoliyatida, jumladan, 2023 yil uchun chora-tadbirlar dasturining VIII-yo'nalishida belgilangan "Milliy qadriyatlar, ma'naviy fazilatlar va ijtimoiy odoblar targ'iboti" 41-bandi "Milliy davlatchiligimiz tarixi, buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy-ma'naviy merosini o'rganish orqali aholi o'rtasida milliy birdamlik, vatanga sadoqat, milliy o'zligidan faxrlanish tuyg'ularini kuchaytirish" mavzusidagi targ'ibot ishlarini o'tkazishda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023-yil 20-apreldagi 02-22/359-son ma'lumotnomasi). Natijada, mamlakatimiz yoshlarni ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashini shakllantirishda Markaziy Osiyo va Yevropa allomalarining ilmiy, falsafiy va ijtimoiy munosabatlariga oid qarashlari yoshlarimizni vatanparvarlik, fidoiylik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik, innovatsion g'oyalarni yaratish ruhida tarbiyalashga xizmat qilgan;

G'arbda XIV-XV asrlarda olamning ilmiy manzarasi va kosmologik ta'limotlar rivojiga Abu Rayhon Beruniyning geliosentrik konsepsiyasi tabiat falsafasining rivojiga, uning tabiiy va sun'iy tanlanish, rivojlanish anomaliyasi kabi murakkab ontologik muammolarini hal etishda va aqlning yuqori ahamiyati, bilishga intilish va manfaatdorlik kabi gnoseologik asoslarini boyitishga hissa qo'shganligiga doir ilmiy yangiliklar va umumlashmalardan "O'zbekiston tarixi" telekanalining 2023-yil efirga uzatilgan "Mavzu" ko'rsatuvi ssenariysini tayyorlash va suratga olishda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokampaniyasi "O'zbekiston telekanali" davlat muassasasining 2023-yil 22-maydagi 06-50-982-son ma'lumotnomasi). Natijada, ko'rsatuvni yangi materiallar, faktik ma'lumotlar bilan boyitilishiga, teletomoshabinlarning dunyoqarashi kengayishiga xizmat qilgan;

Sharq va G'arbda yaratilgan astronomik g'oyalar jo'g'rofiy iqtisodiyotda amaliy qo'llanilgani va Buyuk Ipak yo'li orqali mamlakatlar taraqqiyotiga muhim hissa qo'shganligi, inson faqat moddiy boylikka emas, ko'proq ma'naviy boylik, e'tiqod va imon tomon intilishiga oid konsepsiyalarga oid ilmiy xulosalar va yangiliklardan O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining yuksak intellektual salohiyatga ega ijodkor yoshlarni qo'llab-quvvatlash borasidagi faoliyatida, xususan "Yangi O'zbekiston yoshlari, birlashaylik!" shiori ostida o'tkazilgan "Yoshlar festivali" ko'rik tanlovi dasturining II-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi markaziy Kengashining 2023-yil 26-apreldagi 04-13/338-son ma'lumotnomasi). Natijada, oliy ta'lim

muassasalari hududida Markaziy Osiyo va Yevropa allomalar merosiga bag'ishlangan kitobxonlik, vatanparvarlik, fidoyilik, Vatanga sadoqatlik, ishbilarmonlik qobiliyatini rivojlantirish, alturizm sohalaridagi ishlarni samarali tashkil qilishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 6 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot natijalari bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola (4 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 137 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi, dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi tavsiflangan, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti, predmeti va usullari yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Markaziy Osiyo va Yevropa Renessansini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari**" deb nomlangan birinchi bobi Markaziy Osiyo va Yevropa Renessans davrini o'rganishning nazariy manbalari va metodologik masalalari tahliliga bag'ishlangan.

Tadqiqotda Markaziy Osiyo va Yevropa Renessans davrini o'rganish o'sha davrning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy muhitini ham o'rganishni taqozo etishi shu ma'noda, Abu Nasr Forobiy, Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Zaxiriddin Muhammad Bobur merosi o'ziga xos nazariy manba sifatida xizmat qilishi ilgari surilgan.

Tadqiqotchi ta'kidlashicha, Sharqdagi madaniy yuksalishlar XIII asrda Yevropa mintaqalariga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Fransuz olimi Gyuning fikricha Yevropada XII-XIII asrlarda Sharq allomalari asarlari o'rganilib, Sharqning o'ziga xos falsafasi, madaniyati bilan yaqindan tanishish imkoniyati paydo bo'lgan⁶. Vena soborining (1311-1312 y) qaroriga binoan Parij, Rim, Oksford, Bolonya, Salomank universitetlarida sharq tillari kafedralari tashkil etilgan. Bu Sharqni chuqur

⁶ История философии в кратком изложении. Перевод с чешского И.И.Богоуста. – Москва, 1991. – С.574

o'rganish, uning boy merosini Yevropa mintaqasida targ'ib qilishga, shuningdek, Sharq va G'arb olamini yaqinlashtirishdek gumanistik g'oyalarning amalga oshishiga xizmat qilgan.

Dissertatsiyada tarixiy manbalar asosida 1587-yili Fransiya qiroli Genrix III ning buyrug'iga binoan Kollej de Fransda arab tili kafedrasini ochilgani, XVI asr oxirlariga kelib u Sharq tillari institutiga aylantirilgani, bu esa, Sharq va G'arb tafakkurining o'zaro ta'siri va sintezi uchun muhim ahamiyat kasb etib, har ikkala mintaqaga xalqlarining madaniy muloqotiga, madaniyatlar, qarashlar rivojiga ta'sir ko'rsatgani asoslab berilgan. Yevropa uyg'onish davrining o'ziga xos jarayonlarni ifoda etishi e'tiborga olgan holda tarixiylik va ilmiylik nuqtai nazaridan quyidagi bosqichlarga bo'lgan:

1. Ilk bosqich - XIV asr.
2. Rivojlangan bosqich - XV asr.
3. So'nggi bosqich - XVI asr.

Bu bilan tadqiqotchi, Renessans davrini metodologik masalariga e'tibor qaratadi. Uning har bir bosqichining o'rganilishi tarixi, nazariy manbaviy, metodologik jihatlarini ochib bergan. Uning o'ziga xos jihatlarini vujudga kelishining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy omillarini tahlil etgan.

Yevropa mintaqasidagi Uyg'onish Italiyada asosan XIV asr va boshqa mamlakatlarida XV-XVI asrlarni qamrab olgan. Shu bilan birga, Renessans sabab Yevropada gumanistik g'oyalar ildiz otib, italiyalik faylasuflar Dante Aligyeri (1265-1321 yy), Marsiliy (1278-1348 yy), Franchesko Petrarka (1304-1374 yy), Jovanni Bokachcho (1463-1495 yy) va boshqa allomalar asarlarida o'z ifodasini topgan. Tadqiqotda "Renessans" o'zining ilk bosqichida (XIV asr) Yevropaning eng rivojlangan mamlakatlarini qamrab olgani hamda qadimgi Italiyada XII asrdayoq vujudga kelganligi ta'kidangan. Yevropaning bir qator rivojlangan mamlakatlarida hunarmandchilik va savdo-sotiq ishlari rivojlana boshladi. Insonlarning shaharga tomon intilishlari ko'paydi. Jamiyat hayotida shaharlarning o'rni muhim ahamiyat kasb etdi. Yangi iqtisodiy munosabatlar qaror topa boshladi. Insonlarning tafakkur tarzi va turmush tarzida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi.

Tadqiqotchi, XII-XIII asrlardan boshlab, Renessans Yevropa davlatlarida nafaqat dinga, balki ilmga ham asoslanishini qayd etgan. Renessans davridagi yevropalik inson qadimgi zamon va o'rta asrlar kishisidan o'z faoliyatini hech qanday ta'qiqlarsiz bajarish imkoniga ega bo'lganligi, o'z turmush tarzini o'zi belgilay olishi, o'ziga-o'zi hukmronlik qilish imkoniga ega bo'lganligi bilan ajralib turadi⁷. Demak, Yevropada xristianlikning hukmron dinga aylangani o'ziga xos tarzda taraqqiyotga zid an'analarni ham amalga oshirganligi ma'lum ma'noda mintaqada taraqqiyotni zaiflashtirgan edi.

Tadqiqotchi quyidagi jadval asosida Markaziy Osiyo va Yevropa Renessansini o'rgangan olimlar, shu doiradagi tadqiqotlarga tayanib metodologik masalalarni tahlil qilib, ikki mintaqaga bo'yicha ilgari surilgan Renessansning xususiyatlarini qiyosiy tahlil etgan.

(Qarang: 1-rasm)

⁷ История эстетики. Памятники мировой эстетической мысли. Том 1. – Москва, 1962. – С. 507;

Markaziy Osiyo Renessansining o'ziga xos xususiyatlari:	Yevropa Renessansining o'ziga xos xususiyatlari:
1. Renessansning o'ziga xos xususiyatlari prezentizm asosida o'tmish va qo'shni mamlakatlarning madaniyati yutuqlaridan keng foydalanish hamda ijtimoiy ilmlarning rivojlanganligi;	1. Uyg'onish davrining asosiy xususiyati bu antifeodal yo'nalish kasb etganligi hamda antikvarizm asosida dunyoviylik va ratsionalizmning diniylikdan ustunligi;
2. Tabiatshunoslik ilmlarining rivoji, ratsionalizm, tabiatga qiziqish, aql kuchiga ishonish, asosiy urg'u haqiqatni topishga yo'naltirilgan fanlarga berilishi, haqiqatni inson tasavvuri va ilmining asosi deb hisoblanishi;	2. Renessans davri dunyoqarashi- ning qadimgi zamon va o'rta asrlar davri dunyoqarashidan farq qiladigan eng asosiy farqli jihatlaridan biri uning san'atga asoslanganligi;
3. Insonni ulug'lash, uning tabiiy, aqliy, badiiy, ruhiy, ma'naviy xususiyatlarini asoslash, insonparvarlik, yuqori axloqiy qonun va tamoyillarini namoyon etish, komil insonni tarbiyalash uchun intilish va harakatlanish;	3. Yevropada XV-XVI asrlarda tabiatshunoslik fanining shiddat bilan rivojlanish davri boshlanib, ishlab chiqarish, xususan, texnikaning o'sishi natijasida ilmiy taraqqiyotga keng yo'l ochilganligi;
4. Renessans davrining o'ziga xos tomonlari tabiat hodisalarini o'rganish va uning mohiyatiga yoritish. Sharqda geotsentristik g'oyaning hukmronligi va Abu Rayhon Beruniyning geliotsentrik nazariyani asoslab berganligi;	4. Yevropada XV-XVI asrlarda tabiatshunoslik fanining yuksalishi natijasida ishlab chiqarish, jumladan, texnikaning o'sishi ilmiy taraqqiyotga keng yo'l ochganligi. Geliotsentristik ta'limotni yaratgan Nikolay Kopernik murakkab hisoblar yordamida Yerning Quyosh atrofida va o'z o'qi atrofida aylanib turishini aniqlagan;
5. Davlat va jamiyat boshqaruvining nazariy negizlari bo'lgan adolat va axloq tamoyillarini shakllantirish, ularning huquqiy hamda amaliy asoslarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etganligi;	5. Yevropa ma'rifatparvarlari o'zlarining birinchi navbatdagi vazifalaridan biri sifatida davlat hokimiyatini dunyoviy lashtirish, ya'ni cherkovni davlatdan ajratish maqsadida avvalo ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirishga kirishganligi;
6. Davlat boshqaruvida rahbar va xizmatchilarning faoliyat darajalari tasniflari, mas'uliyat mezonlari tizimining nazariy negizlari yaratilgani.	6. Tajriba bilan to'plangan bilimlar hali to'liq tizimli ravishda tashkil etilmagani, aksincha insonning tabiatni o'z manfaatlariga bo'ysundirish uchun har tomonlama o'rganishga bo'lgan istagi ifodalangani va dunyo tartibini idrok etishda jiddiy o'zgarishlar yuz bergani.

1-rasm. Markaziy Osiyo va Yevropa Renessansi xususiyatlari

Tadqiqotchi xulosalariga ko'ra, IX-XII asrlar Renessansning birinchi bosqichi ijtimoiy-falsafiy, tabiiy-ilmiy qarashlarning rivojlanishi hamda insonparvarlik g'oyalarining yuksalishi bilan xarakterlanadi. XIV-XV asrlarda Markaziy Osiyodagi madaniy ko'tarilishlar IX-XII asrlardagi Uyg'onishning mantiqiy davomi edi. X asrda Markaziy Osiyo, Eron, Hindiston va Yaqin Sharqning madaniy an'analari va o'sha davrda Markaziy Osiyoda rivojlangan ilg'or ilmiy tafakkur Uyg'onish davri gumanizmi va undan keyingi materialistik falsafiy olimlarning shakllanishiga ta'sir etdi. O'rta asrlarda Sharq olimlarining astronomiya, geografiya, matematika, tibbiyot, al-kimyo, tarix, sohasida qo'lga kiritgan yutuqlari abstrakt mulohazalardan ko'ra, ko'proq tabiatshunoslik va tajribaga asoslangan. Yaqin Sharq va Yevropada yashagan xalqlarning Uzoq Sharq bilan Buyuk Ipak yo'li – Markaziy Osiyo orqali o'tgan savdo aloqalari tufayli ilm-fan, madaniyat, san'at va savdo-sotiq yuqori darajada rivojlangan.

Dissertatsiyaning **“Markaziy Osiyo va Yevropa Renessansining o'zaro ta'sir xususiyatlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida Renessans davri Sharq va G'arb ijtimoiy-falsafiy fikrlar rivojining xususiyatlari hamda o'zaro ta'siri, dunyoviy va diniy bilimlarning uyg'unlashuvi, Renessans davri falsafiy dunyoqarashi takomillashuvidagi o'rni, Markaziy Osiyo Renessansining Yevropa ilm-fani va tafakkuri taraqqiyotiga ta'siri tahlil etilgan.

Tadqiqotchi ta'kidlashicha, XVI asrgacha G'arb va Sharq falsafiy tafakkuri har biri o'z yo'lida rivojlangan: arab musulmon Sharqida va Ispaniyaning arablar istilo qilgan qismida falsafaga dinning ta'siri Yevropa va Sharqiy Osiyodagidan kamroq bo'lgan. Bu davrda arab musulmon fani rivojlanishda Yevropa fanidan ancha ildamlab ketgan. Xitoyda ham fan, garchi din ta'siri ancha kuchli bo'lsa-da, Yevropadagidan ilg'orroq bo'lgan. Ayrim Sharq faylasuflari o'z asarlarini antik davr mutafakkiri Demokritning atomlar haqidagi ta'limoti, Empedokl elementlari, Pifagor matematikasi, Platon g'oyalari, Aristotelning falsafiy va tabiiy-ilmiy merosi, ayniqsa, uning mantiq tizimi ta'sirida vujudga kelgan ilmiy-falsafiy an'ana ruhida yaratganlar.

Dissertatsiyada IX-XV asr Sharq Uyg'onish davrida inson va uning axloqiy fazilatlarini, insonparvarlik g'oyalarini targ'ib qilgan holda Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy kabi ko'plab allomalar insonning yashashdan maqsadi, hayotining mazmuni, baxt-saodatga erishish singari axloqiy fikrlar ilgari surganligi ta'kidlangan. Shu bilan birga “komil inson” g'oyasi ma'naviy-axloqiy fikr rivojida muhim o'rin tutganligi asoslab berilgan. Uyg'onish davri mutafakkirlari odamiylik, mardlik, shijoatkorlik, vatanparvarlik, mehr-shavqat, adolat, o'zaro yordam, saxiylik, kasb-hunar egallash, halol mehnat qilish, komil inson fazilatlarini shakllantirish g'oyalarini targ'ib qildilar.

Fransuz Uyg'onish davri shakllanishi XV asrga to'g'ri keldi. Angliya bilan yuz yillik urush (1337-1453-yy) nihoyasiga yetgach, yagona monarxiya davlati barpo etildi. Yangi paydo bo'lgan burjuaziya hali o'z mavqeini mustahkamlamagan paytda davlatning qudrati o'sha davr uchun g'ayrioddiy kuch hisoblangan. Uzoq muddatli diniy islohotlarga asosan, fransuz uyg'onish davri rasmiy madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarida aks etgan bo'lib, ularda dadil, siyosiy va axloqiy g'oyalar, erkin fikr, vatanparvarlik va milliy o'ziga xoslik

shubha va kinoya bilan birga yashagan. XV asrning oxirida fransuzlar qadimiy o'z urd-odatlarini, merosiga amal qilgan holda italyan gumanistlarining qarashlariga yondashishdi. Ommaviy kutubxonalar tashkil etish asosida nashriyot faoliyati yo'lga qo'yildi, ta'lim cherkov buyrug'idan xoli qilindi⁸.

Tadqiqotchi ta'kidlashicha, so'nggi Uyg'onish davri gumanistlari orasida Sen-Mishen de Monten falsafiy tahlil asosida yaratilgan janrlar alohida muhim ahamiyat kasb etgan. Mishel de Montening (1533-1592-yy) "Tajribalar" asarida axloq normalari ishlab chiqildi, lekin mamlakat hududidagi insonlarning manfaatlariga ta'sir qilmasa-da, tabiatning tabiiy istaklariga ergashishga va ularning xatti-harakatlarini aql bilan boshqarishga undaganligi asoslangan.

So'nggi Uyg'onish san'atining eng yuqori cho'qqisida Leonardo da Vinchi, Rafael, Mikelanjelo ijodi muhim ahamiyat kasb etdi. Onalik idealini o'zida mujassam etgan Madonna obrazini yaratgan asar Rafael Santiga (1483-1520-yy) eng katta shon-sharaf va shuhrat keltirdi. Ular cheklangan hissiyot, sir saqlash va olijanob ulug'vorlikni organik tarzda birlashtirdilar.

Shuningdek, "Mona Liza", "Grotto", "So'nggi kechki ovqat" muallifi Leonardo da Vinchi (1452-1519-yy) faoliyati g'ayrioddiy ko'p qirrali bo'lib, rasm, haykaltaroshlik, me'morchilik va grafika bilan cheklanmagan. Uning bizgacha yetib kelgan she'rlari, texnik ixtirolarning eskizlari, anatomiya, fizika, geologiya, kimyo, matematika, botanika va boshqa bir qator fanlarga tegishli yozuvlar nafaqat Leonardoni san'atdan ajratibgina qolmay, balki u tomonidan badiiy mahoratning asosi deb hisoblanib, uning fikri tabiatni yaxshilashga qaratilgan⁹.

So'nggi Uyg'onish davrining teng darajada yorqin namoyondasi Mikelanjelo Buonarrotdir (1475-1564-yy). Leonardo kabi, u o'zining serqirrali qobiliyati bilan insoniyatni ajablantirdi. Mikelanjelo miqyosi va ruhi bilan ulug'vor obrazlarni yaratdi, o'z davrining eng ilg'or g'oyalarini o'zida mujassam etdi, san'atni eng yuqori darajadagi asarlar bilan boyitdi, kelajakda Yevropa badiiy madaniyati rivojlanishini izohlab berdi. Uning hayotidagi drammatizm, ijodiy shubhalar va iztiroblar, o'limni yuqori idrok etish falsafiy she'riyatda sezildi¹⁰.

Shuningdek, tadqiqotda islom dini ijtimoiy dunyoqarash sifatida keng tarqala borishi bilan uning nazariy, falsafiy, huquqiy tomonlarini ishlab chiqishga e'tibor ham tobora kuchayib borganligi asoslab berilgan. Shu tariqa IX-XII asrlar Movarounnahrda ilm-fan, madaniyat, islom falsafasining nazariy jihatdan yuksak darajada rivojlangan davri bo'ldi. Ulardan Imom al-Buxoriy, Al-Motrudiy, Imom at-Termiziy, Mahmud az-Zamaxshariy, Imom G'azzoliy, Burhonuddin al-Marg'inoniy, Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviy, Jaloliddin Rumiy, Bahouddin Naqshband, Abdulxoliq G'ijduvoni kabi buyuk allomalar o'zlarining ilmiy tadqiqotlari bilan jahon madaniyatiga ulkan hissa qo'shdilar. Diniy-ilmiy tadqiqotlarda borliq, ilohiy qudrat, inson komilligi, adolat, insof, diyonat, vijdon kabi g'oyalar inson ruhiyatini poklash orqali erkin jamiyatga chorlandi. Bu borada

⁸ Монтень. Опыты. В трех книгах. Второе издание. (Литературные памятники) / Издание подготовили А.С.Бобович, Ф.А.Коган-Бернштейн, Н.Я.Рыкова, А.А.Смирнов. -Москва: Наука. Книги первая и вторая. 1980. - 704 с.; Книга третья, 1979. - 536 с.

⁹ Леонардо да Винчи. Шедевры графики // Я.Пуидик. – Москва: Эксмо, 2008. – С.182

¹⁰ Dussler L., Girardi E.N. Buonarrori, Michelangelo // Dizionario Biograficodegli Italiani (итал.). – 1972. – Vol. 15

Jaloliddin Rumi shunday deydi: “Inson buyuk bir mo‘jiza va uning ichida hamma narsa yozilgan. Biroq zulmat va pardalar bor-ki, ular yozuvlarni o‘qishga imkon bermaydi. Zulmat va pardalar, turli-tuman mashg‘ulotlar insonning dunyo ishlari borasida olgan tadbirlari va o‘ngilning so‘ngsiz orzularidir”¹¹. Jaloliddin Rumiyning qarashlarida insonning farqi uning komilligiga asoslanadi. U dunyoga irqi, dini, millati, tabaqasidan qat’iy nazar, barcha insonlarga barobar murojaat qiladi. Jaloliddin Rumiyning bashariyat birligi haqida gapirishi o‘sha davr uchun mislsiz jasorat edi.

Tadqiqotchi Markaziy Osiyolik mutafakkirlarning asarlari Yevropa olimlari tomonidan o‘rganilishi XIX asr oxirida: italyan sharqshunosi I.Fiorini (Abu Rayhon Beruniyning kartografik proyeksiyalari); XX asr boshlarida nemis olimi G.Zuter o‘zining Sharqda aniq fanlar tarixiga bag‘ishlangan ishlarida Abu Rayhon Beruniyning bu sohadagi xizmatini qisqacha eslatib o‘tgan va uning xordalar (1910–1911-yy) va osmon jismlarini tekis yuzga tushirishga (1922-y) bag‘ishlangan risolalarini tarjima ham qilganini, Sharq Renessansining Yevropaga kirib borishi, ta’siri, o‘zaro aloqadorligini ochib bergan. Italyan olimi K.Nallino o‘z tadqiqotlarida (1911-y) Abu Rayhon Beruniy asarlaridagi kosmogoniya, falakiyot, jumladan hindlardagi bu fan tushunchalari, yerning kattaligini aniqlash kabi masalalarni tahlil qilgan. Bu esa, Beruniyning Yevropa xalqlari dunyoqarashini, olam to‘g‘risidagi mulohazalarini, falsafiy mushohadalarini kengaytirgan.

Tadqiqotchi fikriga ko‘ra, nemis olimi K.Shoy riyoziyot tarixiga bag‘ishlangan ishlarida Abu Rayhon Beruniyning “Qonuni mas’udiy” (قانون مسعودی) asaridagi geodeziya, trigonometriya va xordalarga oid ma’lumotlarni o‘rgangan (1923-y). Jahon fani tarixi bo‘yicha mashhur olim J.Sarton Abu Rayhon Beruniyini o‘z zamonining jahon miqyosidagi eng yirik olimi, deb baho bergan¹². Tadqiqotchi fan tarixiga e’tibor qaratib, uning Renessans hodisalari bilan bog‘liq jihatlarini falsafiy tahlil etgan. Yevropa Renessansi davrida bilim emas, e’tiqod, fan emas, dinga ko‘proq e’tibor qaratilganini ta’kidlaydi. Teotsentrizm, ya’ni Xudoga, uning mohiyatiga dunyoning birinchi sababi va birinchi asosi sifatida yondashish o‘rta asrlar falsafasiga xos xususiyatdir.

Yevropa Sharq ilmlari bilan tanishish asnosida davlat rahbarlarining ilm-fanga homiyligiga guvoh bo‘lishdi. Endilikda ritsarlarning bilim darajasi kengaydi, qahramonlik, botirlik idealiga madaniyatlilik, saxiylik, olijanoblik, nazokatlilik, bilimdonlik, oshiqlik tushunchalari ham qo‘shildi.

Dinda katta o‘zgarishlar ro‘y berdi. Muqaddas islom dini nafaqat boshqa samoviy dinlarning axloqiy ta’limotlarini davom ettirib, takomillashtiribgina qolmay, balki ularni inson va jamiyat hayotida amalda qo‘llashga harakat qilgan. Go‘zal axloq, mehr-oqibat, inson va mo‘minlarga hurmat hamda g‘amxo‘rlik tamoyillari insonlar qalbidan joy olib, avvalo, ota-onani hurmat qilish, ularning

¹¹ Румий, Жалолдин. Ичингдаги ичингдадир. Фалсафий асар // Масъул мухаррир Н. Комил. - Тошкент: Ёзувчи, 1997. – Б.51

¹² Sarton G. Introduction to the history of science, vol. I-III, Baltimore, 1927-1948. vol.I. p.707; Булгаков П.Г. Жизнь и труды Беруни. - Ташкент.: Фан. 1972. - С.376.

farzand tarbiyasidagi mas'uliyati, yo'lovchilarga, miskinlarga, musulmon bo'lmaganlarga hurmat ko'rsatish asosiy insoniylik fazilatlari sifatida e'tirof etildi.

